

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INTELLEKTUAL
QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI.**

Orziqulova Farangiz Jamol qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti talabasi

Annotatsiya: *Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining intellektual salohiyatini, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda didaktik, syujetli-rolli, harakatli o‘yinlarning ahamiyati va zamonaviy va innovatsion ta’lim texnologiyalardan to‘g‘ri va samarali foydalanish har bir pedagogning pedagogik mahoratiga bog‘liqligiga oid fikrlar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Barkamol avlod, maktabgacha, yosh bolalar, intellektual, qobiliyat, rivojlantirish, zamonaviy pedagogik, texnologiya tashabbuskorlik, iqtisodiy, tizim.*

Kirish: Ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari daraja-siga ko‘tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidla-ganlaridek “*Maktabgacha ta’lim - ertangi kunimizga zamin*” dir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual salohiyatini rivojlanishida ularning tug‘ma qobi-liyat va iste’dodning o‘rni muhim ahamiyatga ega. Lekin bu qobiliyat va iste’dod, barcha bolalarga nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib borish, bolalarning iste’dodini oshirib boorish birinchi navbatda pedagoglarimizga va keng jamoatchilik zimmasiga ya’ni oila, mahalla, o‘quv muassasalari va korxona, tash-kilot, ustaxona boshqaruvchilari zimmasiga tushadi. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasining yuksalishi ta’lim tizimining raqobat-bardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois ham “*O‘zbekiston Res-publikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi*” da ta’lim soha-sini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatini, jismo-niy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish va iqtiso-diyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifa-tida belgilangan bo‘lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta’lim tizimini yaratish ko‘zda tutilgan. Yuqoridagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun, albatta bugungi davr talabiga mos ta’lim tizimining bosh poydevori sifatida maktabgacha ta’lim tizimi muhim ro‘l o‘ynaydi. Maktabgacha ta’lim har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Muammolarni bartaraf etish niyatida, qolaversa, intel-lektual salohiyatli, sog‘lom va barkamol avlodlarni shakllantirish maqsadida yurti-mizda maktabgacha ta’lim tizimiga katta e’tibor

qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirligining tashkil etilishi, bir qator qaror va qonun hujjatlarining ishlab chiqilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Maktabgacha ta'lim tizimida yutuqlarga erishish, islohotlar olib borish, sog'lom va barkamol shaxsni tarbiyalashda davlat ta'lim dasturiga asoslangan holda ta'lim va tarbiya jarayonini sifatli tashkil lozim. Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim va tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish uchun nimalarga e'tibor berish kerak? Avvalo, pedagog o'zini shakllantirishi va mashg'ulot jarayoniga puxta tayyorgarlik ko'rishi kerak. Undan so'ng esa ta'lim va tarbiya jarayoni uchun qulay va sog'lom muhit tayyorlash lozim. Shu sababli ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy va innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish talab qilinmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda ularning qiziqishlaridan foydalanish lozim. Katta guruh bolalari maktab hayoti bilan juda qiziq boshlaydilar. Bolalardagi bunday qiziqishni tarbiyachi qo'llab-quvvatlashi va yana-da orttirib borishi kerak. Buning uchun maktab va unda o'qish haqida qiziqarli suhbatlar o'tkazish hamda yaqin atrofdagi maktabga ekskursiya uyushtirish yaxshi natija beradi. Bog'chalardagi yetti yoshga to'lgan bolalarning hammasi ham maktabdagi o'qish mashg'ulotlariga bab-baravar tayyor bo'lavermaydi. Ayrim bolalar maktabdagi yangi sharoitga tez kirishib keta olmaydi. Ularda o'qish mashg'ulotlari (dars) uchun qandaydir bir xususiyat yetishmayotgandek ko'rinadi. Bu o'rinda shunday bir savol tug'iladi. Bolalarni qay paytda psixologik jihatdan maktabdagi o'qish jarayoniga tayyor deb hisoblash mumkin? Ayrim psixologlarning fikricha, bola maktabda o'qish uchun atrofdagi narsa va hodisalarga doir anchagina tasavvur va tushunchalarga ega bo'lishi hamda ma'lum darajada aqliy jihatdan o'sgan bo'lishi lozim. Lekin bu bolaning o'qishga tayyor ekanligini aniqlashda hal qiluvchi omil emas, chunki bu yerda yosh masalasi ham bor. Yetti yoshga to'lish davri bog'cha yoshi davrining tugallanishi va o'smirlikning boshlanishi davriga to'g'ri keladi. Xuddi ana shu davrdan boshlab bolalarda o'z-o'zini anglash tarkib topa boshlaydi. Shuning uchun ham shu davrdan boshlab bolalarni izchil o'qitishga o'tish maqsadga muvofiqdir. K.D.Ushinskiyning fikricha, bolaning maktabdagi o'qish faoliyatiga tayyorligi ayrim psixik jarayonlarning taraqqiyot darajasi bilan-gina emas, balki bola shaxsining umumiy taraqqiyot darajasi bilan aniqlanadi.

Shunday qilib, bolaning maktabdagi o'qishga tayyorligi shaxsning ijtimoiy yetuklik bosqichlaridan biridir. Lekin ijtimoiy taraqqiyotning bunday yetuklik bosqichiga bola o'z-o'zidan ko'tarilmaydi. Uni bu bosqichga bog'chadagi va oiladagi butun ta'lim-tarbiya ishi ko'taradi. Bola yetti yoshga to'lganda u jismoniy jihatdan ancha o'sadi, o'zini idora qilishga, nojo'ya xatti-harakatlardan o'zini tiyish-ga, xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga harakat qiladi. U o'zini bemalol eplaydigan bo'ladi, o'z kuchiga yarasha mehnat qila oladi, jamoada yashashga ko'nika boshlaydi. Bu davrda bolaning turmush tajribasi anchagina ortadi, ko'p narsalarning nomini va ulardan qanday foydalanishni biladi. Xotirasi va tasavvurlari o'sib, ko'p-gina she'r va hikoyalarni yoddan bilib oladi. Yetti yoshli bolaning nutqi ma'lum darajada rivojlanib, so'z zaxirasi ko'payadi. Natijada u o'z o'rtoqlari va

kattalar bilan erkin suhbat qila oladigan bo‘ladi. Yetti yoshga to‘lgan bolalarda turli harakatlar ham mustahkamlanadi. U qaychi, igna, qalam, ruchka kabi ish qurollaridan foydalanish malakasini egallay boshlaydi. Biroq bu davrda ham bolada beixtiyor aktivlik hali ustunlik qiladi. Shu sababli bolani qiziqtiradigan yoki unga kuchli ta’sir qiladigan narsalar uning diqqatini o‘ziga jalb qiladi. Bola maktabga chiqqanidan keyin ham uning hayotida o‘yin juda katta o‘rin egallaydi. Bola o‘qish mashg‘ulotlaridan bo‘sh paytida har xil o‘yinlarni o‘ynashda davom etaveradi. O‘yin jarayonida bola o‘z-o‘zini idora qilishga, o‘z harakatlarini o‘yin qoidalariga bo‘ysundirishga, javobgarlikni sezishga, jamoa manfaatini ustun qo‘yishga odatlanadi. O‘yin va bog‘chadagi didaktik mashg‘ulotlar jarayonida bolalarning aql-idroki, xotira va tafakkuri o‘sadi. Bular, o‘z navbatida, bolaning maktabda o‘qiy olishi uchun psixologik zamin tayyorlaydi. Bunday zaminni tayyorlash va mustahkamlashda, albatta, oilada hamda bolalar bog‘chasida olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bolalarda 5–6 yoshdan ijtimoiy ong tarkib topa boradi. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagogik to‘plamlari intensiv ravishda olib borilmoqda va o‘z ishlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etmoqdalar. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi tarbiyachilarning asosiy vazifasi – bu bolalar bilan ishlashni tashkil etish usuli va shakllarini, shaxsni rivojlantirishning belgilangan maqsadga optimal darajada mos keladigan innovatsion pedagogik texnologiyalarni tanlashdir. Shu maktabgacha ta’limdagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, maktabgacha ta’limning davlat standartlarini amalga oshirish uchun yo‘nalish hisoblanadi. Davlat talablarining asosiy maqsadi yosh avlodni milliy istiqlol mafkurasi asosida sog‘lom, har tomon-lama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashdan va maktab ta’limiga tayyorlashdan iboratdir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy, tub o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta’lim muassasasida yoki uydayoq maktab ta’limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Bunday tanishtiruv, moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo‘lishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qobiliyat – odam psixikasining eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, bu xususiyatlarni xaddan tashqari keng to‘ldirish imkoni oqibatida qandaydir bir qobiliyatning nisbiy zaifligi hattoki bu qobiliyat bilan hammasidan ko‘ra bir – biri bilan bog‘liq faoliyatning muvaffaqiyatli bajarish imkoni aslo yo‘q emas. Bir shaxsda qobiliyatning yetishmasligi boshqa bir shaxs bilan o‘rtalarida chegara qoplangan bo‘lishi mumkin. Aynan chegara qoplanishining imkoniyati har-hil: masalan, musiqiy iste’dod va musiqaga yoki biror bir shunga o‘xshash sohaga bo‘lgan qobiliyat bilan bog‘langan faoliyat iste’dod bo‘lmasa har qanday urinishlar oqibatida omadsizlikka olib kelishi muqarrar. “Iste’dod” va “qobiliyat” o‘ziga xos xususiyat tushunchalarga ega, ulardagi inson xususiyatlari har qanday amaliy faoliyat taqdim etayotgan talablar nuqtai nazaridan ko‘riladi. Shuning uchun iste’dod haqida ham umumiy gapirish mumkin. Iste’dod shaxsning faqatgina nimagadir, qandaydir faoliyatga nisbatan aytiladi. Bu “umumiy

iste’dod” haqidagi savolni ko’rib chiqilishida hususan muhim ahamiyatga ega. Aynan “iqtidorlilik” tushunchasining ichida zaruriy shart sifatida muayyan amaliy faoliyatdan iborat bo’lgan o’zaro bog’liqlik ushbu tushunchaning tarixiy xarakterini belgilab beradi. “Iste’dod” tushunchasi biologik xususiyat deb qaralganda o’z mazmunini yo’qotadi. Iste’dod anglashimizcha, bu har qanday u yoki bu boshqa faoliyat turlariga kiritilishi va shubhasiz har bir muayyan faoliyatning “muvafaqqiyatli” bajarilishiga jiddiy ravishda bog’liqligidir. Ta’kidlash lozimki, qobiliyaPedagogik texnologiya o’zi nima? Pedagogik texnologiya juda keng ma’no kasb etadi. “Pedagogik texnologiya – bu o’qitishga xos yangicha innovatsion yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy muhandislik, tafakkurning ifodalanishi, texno kratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko’chirilgan tasviri, ta’lim jarayonining muayyan standartlashuvi deyiladi”, - deb ta’riflaydi B.L.Farberman. Bolalar bilan muloqot qilishda kattalar pozitsiyasiga rioya qilishadi: *“Yonida emas, uning ustida emas, balki birga!”* Uning maqsadi bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga hissa qo’shishidir. Yaponiyada maktabgacha ta’lim tizimi texnologiyasini olib qarasak, ular o’z oldiga avval maqsad qo’yadi, keyin rejalar tuzishadi. Yaponiya maktabgacha ta’lim tizimida bola shaxsini shakllantirishga qo’yilgan qoidalar:

- ◆ tarbiyalanuvchilariningiz bilan ijobiy munosabatda bo’lishingiz kerak;
- ◆ qiziqish asosida sinfni tashkil eting;
- ◆ buni ular uchun qilmang.

Ularga o’zlari buni qilishiga yordam bering; – aniq ko’rsatma so’zlar va qalb tilidan foydalaning; – har doim turli vaziyatlarga tayyor bo’ling. Hozirgi kunga kelib maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim va tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda pedagoglar o’yin texnologiyasidan keng foydalanishmoqda. Ayniqsa, bolaning intellektual salohiyatini, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda didaktik, syujetli-rolli, harakatli o’yinlarning ahamiyati va o’rni katta. Zamonaviy va innovatsion ta’lim texnologiyalardan to’g’ri va samarali foydalanish har bir pedagogning pedagogik mahoratiga bog’liq. Didaktik o’yinlar bolalarda mantiqiy fikrlashni, intellektual salohiyatini, diqqatini, xotirani kuzatishni rivojlantiradi. Quyida o’yin texnologiya-sining bir qancha turlari bilan tanishib o’tamiz. “Mavsumni nomlang” o’yini bolalar rasmlarga qarab fasl alomatlarini takrorlaydilar, undan so’ng bu alomatlar qaysi faslga tegishli ekanligini takrorlaydilar. *“Imo-ishoralarni to’g’ri ko’rsating”* o’yini imo-ishoralarning ketma-ket chiziqlardan iborat, bolalar qisqa vaqt ichida ko’rsa-tilgan ishoralarni takrorlashlari kerak. O’yinda sekundometrdan foydalanish o’yinni yanada qiziqarli qiladi. O’yin orqali bolada qo’l matorikalari, harakat tezligi, xotira va diqqat rivojlanadi. *“Uyushma gullari”* o’yini gulning yadrosi so’zlari bola tomo-nidan namoyish etilgan barglar mavzusidagi assotsiatsiyalar yordamida topiladi. O’yin assotsiativ fikrlashni, ob’yektlar o’rtasidagi sabab oqibat munosabatlarini topishga o’rgatadi. Kuzatuvchanlikni, diqqatni rivojlantiradi. *“Aksini ayt”* o’yini tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari uchun vazifa murakkablashishi mumkin. Bu mashg’ulotni rasmlarni namoyish qilmasdan o’tkazish maqsadga muvofiq.

Ushbu o’yin maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruhi bolalar bilan ta’lim faoliyati uchun muhim hisoblanadi. Uning yordami bilan tahlil qilishni, mantiqiy xulosalar

chiqarishni, antonimlarni tanlashni, iboralarni to‘g‘ri shakllantirishni o‘rganadilar. O‘yin xotirani, konsentratsiyani, fikrlash qobiliyatini, eshitish qobilya-tini yaxshi-laydi, so‘z boyligini boyitadi. Pedagogning maqsadi bolalarning shaxs sifatida rivojlanishiga hissa qo‘shishdir. Bunga pedagogik texnologiyalar yordam beradi. Maktabgacha ta‘lim tizimida pedagoglarning asosiy vazifasi– bolalar bilan ishlashni tashkil etish usullari va shakllarini, maqsadiga optimal darajada mos keladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar tanlashdir.

“Iste’dod” va “qobiliyat” o‘ziga xos xususiyat tushunchalarga ega, ulardagi inson xususiyatlari har qanday amaliy faoliyat taqdim etayotgan talablar nuqtai nazaridan ko‘riladi. Shuning uchun iste’dod haqida ham umumiy gapirish mumkin. Iste’dod shaxsning faqatgina nimagadir, qandaydir faoliyatga nisbatan aytiladi. Bu “umumiy iste’dod” haqidagi savolni ko‘rib chiqilishida xususan muhim ahamiyatga ega. Aynan “iqtidorlilik” tushunchasining ichida zaruriy shart sifatida muayyan amaliy faoliyatdan iborat bo‘lgan o‘zaro bog‘liqlik ushbu tushunchaning tarixiy xarakterini belgilab beradi. “Iste’dod” tushunchasi biologic xususiyat deb qaral-ganda o‘z mazmunini yo‘qotadi. Iste’dod anglashimizcha, bu har qanday u yoki bu boshqa faoliyat turlariga kiritilishi va shubxasiz har bir muayyan faoliyatning “muvafaqqiyatli” bajarilishiga jiddiy ravishda bog‘liqligidir. Ta’kidlash lozimki, qobiliyat o‘zining mavjudligi bilan dinamik tushunchadir. Qobiliyat faqat harakatda, faqat rivojlanishda paydo bo‘ladi. Psixologik jihatdan qobiliyat haqida, o‘zining rivojlanishdan oldin mavjud bo‘lganligidek, hamda qobiliyat o‘zining to‘la rivojiga yetib, o‘zining rivojlanishi to‘xtashi haqida so‘zlash aslo mumkin emas. Chunki qobiliyat doimiy rivojlanishda bo‘lishi kerak. Bundan xulosa qilinadiki, qobiliyat aniq faoliyatdan tashqarida paydo bo‘lmaydi. Faqat biz uni psixologik taxlil qilish yo‘li bilan ularni bir-biridan ajrata olamiz. Qobiliyatni aniq faoliyat boshlanishidan oldin mavjud va faqat uning yakunida qo‘llaniladi degan xulosaga kelish aslo mumkin emas. Go‘dakda absalyut eshitish qobiliyati tovush balandligini bilish birinchi bor dunyoga kelishidan oldin mavjud emas. Ungacha faqatgina anatoma- fiziologik haqiqatdek iste’dod nishonasi mavjud bo‘lgan. Gap qobiliyat faoliyatda namoyon bo‘lishida emas, balki ularning shu faoliyatda yaratilishidadir. Qobiliyatning rivojlanishi, umuman har qanday rivojlanish ham oddiy bo‘lmaydi uning harakat kuchi ziddiyatlar bilan kurashishdadir, shuning uchun rivojlanishning har hil bosqichida qobiliyat va qiziqishlar o‘rtasida ziddiyatlar bo‘lishi mumkin. Lekin, bo‘lishi mumkin bo‘lgan bunday ziddiyatlarni tan olish, qiziqishlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi qobiliyatdan mustaqil tarzda paydo bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qobiliyat tushunchasini insonning tabiiy xususiyati deb qabul qilmay, biroq biz ko‘p hollarda qobiliyat rivoji asosida ba’zi insonlarda tabiiy xususiyat, ya’ni iste’dod ham mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Ba’zida “haqiqiy”, “tabiiy”, “tabiatdan berilgan” va shunga o‘xshash so‘zlar bilan aytilganda – “tabiiy” tushunchasi,- qobiliyat tushunchasi bilan amaliy tahlilda bir-biriga bog‘liq. K‘op hollarda biz tabiiylikni iste’dod rivoji asosida yotgan qobiliytni tushunamiz. Shuni ta’kidlash kerakki, uzluksiz ta’lim tuzimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, yosh avlodni yuksak salohiyatli, intellektual qobiliyatli shaxsni

shakllantirish, maktab ta'limiga sifatli tayyorlash maktabgacha ta'lim tizimining qolaversa, pedagog-tarbiyachilarning asosiy vazifasi ekan, tizimni professional tashkil etish, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari va zamonaviy innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.G. Majitova MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTI-RISH , INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 42-45
2. A.G.Majitova INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TARBIYALANUV-CHILARNI INTELLEKTUAL QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ULARNING YOSHIGA XOS BO'LGAN PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI, INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 36-41 Международный научный журнал № 9 (100), часть 3 «Научный импульс» апреля , 2023
3. A.G. Majitova, E.X.Xolto'rayeva MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MEHNAT TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI, INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 46-52
4. A.K.Xamrayeva PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS SPECIFIC TO THEIR AGE IN FORMING THE INTELLECTUAL ABILITY OF THE STUDENTS ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AG Majitovna Новости образования: исследование в XXI веке 1 (5), 414- 418
5. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS SPECIFIC TO THEIR AGE IN FORMING THE INTELLECTUAL ABILITY OF THE STUDENTS ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AG Majitovna Новости образования: исследование в XXI веке 1 (5), 414- 418
6. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TALIM-TARBIYA BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI QOLLASH ASOSIDA BOLALARNING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI, INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 62-66
7. G.U.Xolboyeva MAKTABGA TAYЁRLOV GURUXI BOLALARINI MAKTAB TAYLIMIGA TAYЁRGARLIGINING MAZMUNI - INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2023
8. G.U.Xolboyeva, R.J.Okboyeva БОЛАЛАРИНИ МАКТАБ ТАЪЛИМИГА ПСИХОЛОГИК ТAYЁRGARЛИГИ - Новости образования: исследование в XXI веке, 2022 9. Формирование трудового воспитания у детей дошкольного возраста- Евразийский научный журнал, 2018
9. F.J.Orziqulova - MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR

INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI INTERAKTIV METODLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH. 2023

10. S.X. Jalilova, S.M Aripova MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI, Toshkent. 2017

11. Mamatov, G. B. R. (2024). IMPLEMENTATION OF THE EDUCATION SYSTEM OF EUROPEAN COUNTRIES. *Innovations in Technology and Science Education*, 3(19), 135-139.

12. Bozorova, G. M., Mamatov, R. R., Adaxamjonov, A. A., & Jaloldinov, M. S. (2024). THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS. *Science and innovation*, 3(Special Issue 19), 352-354.

13. Mukhammadalievna, B. G. (2023). THEORETICAL VIEWS ON PROVERB IN GERMAN AND UZBEK. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(4).

14. Аблаева, Н. К. (2024). ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(5), 152-156.

15. Аблаева, Н. К. (2024). РОЛЬ ПРИРОДЫ В ДРАМЕ ОСТРОВСКОГО «ГРОЗА». *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 8(8), 176-181.

16. Аблаева, Н. К. (2024). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В БАЛЛАДЕ В. ЖУКОВСКОГО «СВЕТЛАНА». *YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(3), 129-132.

17. Аблаева, Н., & Джуманиязова, И. (2024). ВОЗМОЖНОСТИ КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКИ В ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО СЛОВООБРАЗОВАНИЯ. «CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS», 2(22.04), 520-524.

18. Аблаева, Н. К. (2024). НРАВСТВЕННО-ФИЛОСОФСКАЯ ПРОБЛЕМА В ТВОРЧЕСТВЕ ЛН Толстого (на примере романа " Война и мир"). *JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH, MODERN VIEWS AND INNOVATIONS*, 1(1), 24-27.

19. Rasulova, A. M., & Xusanova, M. (2022). 'Rifat Axmadjonovna POETIK NUTQDA SINONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI.

20. Ahmadjonovna, K. M. (2024, February). XORIJIY TILNI OSON VA QIZIQARLI O ‘RGANISH TO ‘G ‘RISIDA. In *Formation and Development of Pedagogical Creativity: International Scientific-Practical Conference (Belgium)* (Vol. 4, pp. 20-23).